BUXORO VILOYATI KOGON SHAHAR HOKIMI
Q A R O R I

2023 - yil 27 - iyun 123-2-208-Q/23 Kogon shahar hokimligi

2023/2024-o‘quv yili maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga to’liq qamrab olish va umumta’lim muassasalariga hududlarni biriktirish to’g`risida

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi “Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 140-sonli hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-iyundagi 295-sonli “Xalq ta’limi tizimida davlat xizmatlari ko‘rsatishni yanada takomillashtirish to‘g‘risida” qarori ga muvofiq, 1-sinfga qabul qilishda ota-onalarga qulaylik yaratish uchun bolalarni davlat umumiy o‘rta ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish bo‘yicha davlat xizmatlari joriy etish hamda maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga to‘liq qamrab olish va umumta’lim muassasalariga hududlarni biriktirish maqsadida

Q A R O R Q I L A M A N:

1. 2023/2024-o‘quv yilida maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga to‘liq qamrab olish maqsadida, umumta’lim muassasalariga biriktirilgan hududlar ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Shahar hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari Sh.Tilavov, Kogon shahar maktabgacha va maktab ta’limi bo’limi boshlig‘i F.Hidoyatovga:

bolalarni davlat umumiy o‘rta ta’lim muassasalariga qabul qilish hamda o’quvchilarni bir umumiy o‘rta ta’lim muassasasidan boshqasiga o‘tkazish bo’yicha davlat xizmatlari ko’rsatishning ma’muriy reglamenti tasdiqlanganligi, 2023-2024-o‘quv yilida bolalarni umumiy o'rta ta’lim maktablariga qabul qilish

bo‘yicha davlat xizmati Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz) yoki maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining elektron davlat xizmatlari portali (my.maktab.uz) orqah amalga oshirilishi va Kogon shahrida 2023-2024 o’quv yilida davlat umumiy o’rta ta’lim maktablarining 1-sinfga qabuli bo’yicha davlat xizmati joriy etilishi tasdiqlanganligini inobatga olgan holda maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’lim muassasalariga to‘liq qamrab olinishini ta’minlash;

- umumiy o‘rta ta’lim maktablariga farzandlarining hujjatlarini topshirish iichun kelgan ota-onalarni elektron navbatda belgilangan muddatda qabul qilinishini lashkil etish;

- yangi o‘quv yiliga samarali tayyorgarlik ko'rish doirasida maktablarni malakali boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari bilan to’ldirish choralarini ko‘rish;

- qarorning mazmun-mohiyatini keng jamoatchilikka tushuntirib borish maqsadida ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida muntazam yoritib borish;

-mazkur qaror tasdiqlangan kundan e’tiboran barcha umumta’lim muassasalariga yetkazish va ijrosini ta’minlash topshirilsin.

3. Kogon shahridagi barcha umumiy o‘rta ta’lim maktablari direktorlariga:

- biriktirilgan hududlarda mahallalar bilan hamkorlikda 0-7 yoshdagi bolalarning sonini aniqlash ishlarini doimiy nazoratga olish;

- 2023/2024-o‘quv yilida 1-sinfga faqatgina 2016-yil 1-yanvardan keyin va 31-dekabrga qadar tug‘ilgan bolalarni qabul qilish;

- 2022/2023-o‘quv yilida 1-sinfga o‘qishga qabul qilingan bolalar soni qabul rejasiga nisbatan oshib ketgan hamda o‘qitishga moddiy-texnik imkoniyati yetmaydigan maktablardan yashash joyi bo‘yicha hududi biriktirilgan maktablarga qabul qilish (o‘tkazish) orqali ta’lim sifatini yaxshilash choralarini ko‘rish;

- mazkur qaror mazmun-mohiyatini aholiga, xususan maktab yoshidagi bolalari mavjud bo‘lgan ota-onalarga tushuntirish ishlarini olib borish topshirilsin.

- biriktirilgan hududdagi maktab yoshidagi bolalarni o‘z vaqtida umumta’lim muassasasiga o‘qishga jalb qilish uchun umumta’lim muassasalari rahbarlari shaxsan mas’ul ekanligi belgilansin.

- Umumiy o‘rta ta’lim maktabiga o‘qishga qabul qilinayotgan bolalarning ota-onalari umumta’lim muassasasi nizomi, ichki tartib-qoidalari va ta’lim-tarbiya

jarayonini tartibga soluvchi boshqa hujjatlari talablariga rioya etilishini ta’minlasin.

4. Kogon shahar hokimining 2022-yil 6-oktabrdagi 394-2-208-Q/22-sonli “2022/2023-o‘quv yili maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga to‘liq qamrab olish va umumta’lim muassasalariga hududlarni biriktirish to‘g‘risida” gi qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

5. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab qonuniy kuchga kiradi.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish shahar hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari Sh.Tilavov zimmasiga yuklatilsin.

xokim **H.H.Davlatov**

Kogon shahar hokimining
2023-yil 27-iyundagi
123-2-208-Q/23-son qaroriga
1-ilova